

XIX ASRDA TURKISTONDA XALQ QO‘ZG‘ALONLARI

I.M. Xaydarov

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrasii
professori, tarix fanlari doktori (DSc).*

E-mail: izzatillakhon@gmail.com

Axmatov Jurabek

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
“Sharq mamlakatlari tarixi” yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

E-mail: jorabekaxmatov7@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asrda Turkiston o‘lkasida yuz bergan xalq qo‘zg‘olonlari tarixiy-tahliliy nuqtai nazardan o‘rganiladi. Tadqiqot doirasida qozoq xonining nabirasi Kenesari Qosimov boshchiligidagi milliy ozodlik harakati Qo‘qon xonligini Rossiya bosqiniga qarshi mahalliy qarshilik harakatlari, Buxoro amirligidagi Abdulmalik To‘ra qo‘zg‘oloni, 1875-1876-yillardagi Qo‘qon qo‘zg‘oloni, Dukchi Eshon rahbarligidagi qo‘zg‘olonlar batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Turkiston, xalq qo‘zg‘olonlari, Kenesari Qosimov, Dukchi Eshon, Andijon qo‘zg‘oloni, Qo‘qon xonligi, Rossiya mustamlakachiligi, milliy ozodlik harakati, Naqshbandiya, XIX asr.*

ANNOTATION

In this article, the popular uprisings that occurred in the territory of Turkestan in the 19th century are studied from a historical and analytical point of view. The national liberation movement led by Kenesari Kasimov, the grandson of the Kazakh khan, the local resistance against the Russian invasion of the Kokan Khanate, the Abdulmalik Tora uprising in the Bukhara Emirate, the Kokan uprising of 1875-1876, and the uprisings led by Dukchi Eshan are analyzed in detail.

Keywords: *Turkestan, popular uprisings, Kenesary Kasymov, Dukchi Ishan, Andijan Uprising, Kokand Khanate, Russian colonialism, national liberation movement, Naqshbandiyya, 19th century.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье с историко-аналитической точки зрения изучаются народные восстания, произошедшие на территории Туркестана в XIX веке. Подробно анализируются национально-освободительное движение под руководством Кенесари Касимова, внука казахского хана, местное сопротивление российскому вторжению в

Коканское ханство, восстание Абдулмалик Тора в Бухарском эмирате, Коканское восстание 1875-1876 годов, восстания под руководством Дукчи Эшана.

Ключевые слова: *Туркестан, народные восстания, Кенесары Касымов, Дукчи Ишан, Андижанское восстание, Кокандское ханство, русский колониализм, национально-освободительное движение, Накшбандийя, XIX век.*

Kirish: IX asr Turkiston tarixining eng murakkab va fojaviy davridir. Bu davr bir tomondan Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosati ostida xalqlarning azob-uqubatlari bilan, ikkinchi tomondan esa ularning mustaqillik va erkinlik uchun kurashlari bilan belgilanadi. Qo‘qon, Buxoro va Xiva xonliklari hamda qozoq dashtlaridagi barcha qo‘zg‘alonlar – bu xalqning tarix sahnasida o‘z so‘zini aytishga urinishlaridir¹⁵⁵.

Mazkur maqolada XIX asrda Turkistonda yuz bergan asosiy xalq qo‘zg‘alonlari tahlil etiladi: Kenesari Qosimov boshchiligidagi qozoq milliy qo‘zg‘oloni (1837-1847), Qo‘qon xonligiga qarshi Rossiya bosqiniga hamroh bo‘lgan mahalliy qarshilik harakatlari, Muqanna Abdulmalik To‘ra qo‘zg‘oloni, 1875-1876-yillardagi Qo‘qon qo‘zg‘oloni hamda 1898 yildagi Andijon qo‘zg‘oloni (Dukchi Eshon harakati). Ushbu voqealar nafaqat harbiy tarix nuqtai nazaridan, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlardan ham ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotda rus (Terent’ev M.A., Kaufman K.P., Veselovskiy N.I.), ingliz (Morrison A, Pierce R.A, Khalid A, Keller S.) va mahalliy manbalarga (Fozilbek Otabekov, Ahmad Donish asarlari, Qo‘qon tarixnavislik maktabi) tayanildi. O‘zbekiston, Qozog‘iston va G‘arb akademik nashrlarida e‘lon qilingan zamonaviy tadqiqotlar ham keng foydalanildi.

XIX asr o‘rtasiga qadar Turkistondagi siyosiy holat. XIX asrning o‘rtalariga kelib Markaziy Osiyo hududida uchta asosiy davlat mavjud edi: Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklari. Ushbu davlatlarning har biri o‘z ichki ziddiyatlari, siyosiy beqarorligi va iqtisodiy tangliklaridan aziyat chekar edi. Ingliz tadqiqotchisi Seymour Becker o‘zining *Russias Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865-1924* (1968) asarida ko‘rsatganligi kabi, xonliklarning o‘zaro urushlari ularni kuchsizlantirib, tashqi harbiy tazyiqqa nisbatan nozik ahvolga solib qo‘ygan edi. Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga kengayishi iqtisodiy, harbiy va geosiyosiy omillar bilan belgilandi¹⁵⁶.

Amerikadagi Fuqarolar urushi (1861-1865) tufayli paxta etkazib berishda uzilish yuz berdi; bu hol Rossiya sanoatini xom ashyo manbalariga muhtoj qildi. Bundan tashqari, Britaniya

¹⁵⁵ Matyakubov X.X O‘zbekistonning yangi tarixi. I jild. – Toshkent: Sharq, 2000.b-25-50

¹⁵⁶ Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. В 3-х томах. – СПб: Тип. В.В. Комарова, 1906. – С. 112-145.

imperiyasining Hindistondagi kengayishi Rossiyani ular bilan raqobatga kiritdi. Tarixchilar bu raqobatni “Katta O‘yin” (The Great Game) deb ataydilar. Robert Pierce’ning “Russian Central Asia, 1867-1917” (1960) kitobi ushbu davlatlararo raqobatni batafsil yoritadi.

General Konstantin fon Kaufmannning 1867-yilda Turkiston general-gubernatori etib tayinlanishi yangi bosqinchilik siyosatining boshlanishiga ishora qildi. Toshkent 1865-yilda general Chernayev tomonidan bosib olindi. Samarqand 1868-yilda qo‘lga kiritildi. Rossiya qo‘shinlari bir-biridan mustaqil ravishda uch yo‘nalishdan – Sirdaryo, Orol dengizi va Kaspiy tomonidan – bosib kela boshladi. Mahalliy xalq bu bosqinlarga loqayd qaramadi.

Mustamlaka siyosatining oqibatlari. Rossiya mustamlaka ma‘muriyati bir qator qattiq chora-tadbirlarni joriy etdi: yangi soliq tizimi, yerlarni musodara qilish, rus ko‘chmanchilarini joylashtirish, an‘anaviy boshqaruv tizimini buzish va mahalliy xonlarni qo‘g‘irchoq hukmdorlarga aylantirish. Adeeb Khalid o‘zining “The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia” (1998) asarida ko‘rsatishicha, mustamlaka boshqaruvi nafaqat siyosiy, balki madaniy bosimni ham o‘z ichiga olgan edi. Yerlarni musodara qilish va soliqlarning og‘irligi dehqonlarni qashshoqlashtirdi. 1881 yilgi vaqtinchalik qoidalarga muvofiq, har bir rus ko‘chmanchi oila boshiga 10 desyatnagacha yer berildi va bu yerlar ko‘pincha mahalliy aholidan tortib olindi¹⁵⁷.

Farg‘ona viloyatida 1890-yillarga kelib yer solig‘ining 25–35 foiziga teng bo‘lgan maxsus yig‘im (zemskiy sbor) joriy etildi. Bunday siyosat xalq noroziligini kuchaytirdi va qo‘zg‘olonlar uchun ijtimoiy zamin tayyorladi.

Kenesari Qosimov qo‘zg‘oloni (1837-1847) XIX asrning birinchi yarmidagi eng yirik va uzoq davom etgan qo‘zg‘olon Kenesari Qosimov (1802–1847) boshchiligidagi qozoq milliy harakatdir. Kenesari – mashhur Ablay xonning nabirasi, Qosim sultonning o‘g‘li edi. U qozoq xalqining Rossiya imperiyasiga bo‘ysunishini rad etib, mustaqil Qozoq xonligini tiklashga uringan so‘nggi hukmdor bo‘ldi.

1822 yilda chiqarilgan “Sibir qirg‘izlari to‘g‘risida nizom” qozoq xonligining an‘anaviy boshqaruv tizimini tugatdi. Rus qal‘alari va ma‘muriy markazlarning barpo etilishi qozoq xonining ko‘chmanchi aholi ustidan mavqeini yo‘q qildi. Qozoqlar bu o‘zgarishlar haqida maslahat so‘ralmadi. Kenesarining otasi Qosim va akasi Sarjon avval rus kengayishiga qarshi kurashgan, ammo 1836 yilda Sarjon Qo‘qon hokimi tomonidan xiyonat bilan o‘ldirildi.

Kenesari 1837 yilda katta miqyosdagi qurolli harakatni boshladi. U Petropavlovskdan Toshkentga ketayotgan, 55 kazak karvoni bilan birga yo‘l olayotgan karvonni muvaffaqiyatli egalladi. Kenesarining asosiy maqsadi Ablay xon davrida mavjud bo‘lgan Qozoqiston

¹⁵⁷ Козыбаев М.К. Национально-освободительная борьба казахского народа под предводительством Кенесары Касымова. — Алматы, 1996.С-127-155

chegaralarini tiklash, Rossiya tomonidan tashkil etilgan sofa'larni tugatish va Rossiyaga kiritmagan yerlarning to'liq mustaqilligini saqlab qolish edi.

Toshkent va xo'jandning qo'lga kiritilishi. 1865-yil may oyida general Chernayev 30 000 kishilik garnizon himoya qilayotgan Toshkentga ikkinchi bor hujum qildi. Kokand regenti Alim Quli 6 000 qo'shin bilan yetib kelib, ruslarni deyarli tor-mor qildi, ammo jangda halok bo'ldi. Shahar aholisi shundan so'ng Buxoro amiridan yordam so'rab murojaat qildi, ammo Buxoro qo'shinlari ham mag'lub etildi. 1866-yil may oyida Rossiya qo'shinlari Buxoro amirligi hududiga kirdi.

Rossiya qo'shinlarining Xo'jand qal'asini qamal qilishi tarixda alohida o'rin tutadi. 20 ta top bilan ikki kun davom etgan bombardimon natijasida shahar mudofiasini yorib o'tildi. Shahar ko'chalari himoyachilar va tinch aholining jasadlari bilan qoplandi. Biroq mahalliy aholi har qadam uchun jang qildi. Jizzax shahrida ham buxoroluqlar 6 000 kishini yo'qotdi.

Abdulmalik To'ra Qo'zg'oloni (1868). Buxoro amirligi Rossiya bilan imzolagan 1868 yilgi shartnoma amirni qo'g'irchoq hukmdorga aylantirdi. Amir Muzaffarning to'ng'ich o'g'li Abdulmalik To'ra, Jo'rbek va Bobobek bilan birgalikda Samarqandni ozod qilish uchun kurashni davom ettirdi. Ular Abdulmalik To'rani yangi Amir deb e'lon qilib, Shahrisabz, Qarshi va Karmanani egallab oldi.

Ammo zamonaviy qurolga ega bo'lmagan ularning kuchlari general Abramov boshchiligidagi qo'shinlar tomonidan asta-sekin orqaga surildi. Abdulmalik To'ra Xiva xonligiga, keyin esa Afg'onistonga qochdi va nihoyat Peshavorga yetib bordi, u yerda 1909 yilda vafot etdi. Ushbu qo'zg'olon Buxoro amirligi doirasidagi milliy ozodlik harakatining yorqin namunasi biridir.

1875–1876-yillardagi Qo'qon qo'zg'oloni va xonlikning tugatilishi

1876 yilga kelib Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasining faktik vassaliga aylangan edi. Xudoyorxon armiyaga mablag' topish uchun soliqlarni keskin oshirdi, bu esa xalq orasida kuchli norozilikni qo'zg'atdi. 1875 yil iyul oyida Qo'qon viloyatining sharqiy qismida qo'zg'olon boshlandi. Xudoyorxon Toshkentga qochib, Rossiya himoyasini so'radi. Uning o'g'li Nosriddin taxtga chiqdi, ammo u ham soliqlarni kamaytirishni o'ylamadi.

Abdurrahman Avtobachi boshchiligida aholi saroyga hujum qildi. Nosriddin ham ruslar himoyasiga qochdi. Namangan Qo'qon armiyasi tomonidan egallanib, rus garnizoni qamradi. Skobelev Namangan tomon yo'lga chiqib, kuchli artilleriya o'tidan so'ng shaharni ozod qildi — Qo'qon bu jangda 3 800 kishini yo'qotdi.¹⁵⁸

¹⁵⁸ Бекмаханов Е.Б. Казахстан в 20–40 годы XIX века. — Алма-Ата: Kazakh University Press, 1947.С-20-40

Qirg‘iz Pulatbek xon deb e‘lon qilindi va Andijonni markazga aylantirdi, ammo Rossiya qo‘shinlariga qarshilik ko‘rsata olmadi.

1876 yil 19 fevralda Aleksandr II farmoni bilan Qo‘qon xonligi bekor qilindi va uning o‘rniga Farg‘ona viloyati tashkil etildi. Mikhail Skobelev viloyat harbiy gubernatori etib tayinlandi. Farg‘ona viloyati keyinchalik Rossiya imperiyasining asosiy paxta yetishtiradigan hududiga aylandi.

Dukchi Eshon (taxminan 1856–1898) Farg‘ona vodiysining Chimyon qishlog‘ida tavallud topdi. U Buxoro va Samarqandda diniy ta‘lim oldi, so‘ng Naqshbandiya shayxi Sulton Xon To‘raning shogirdi bo‘ldi va 1882 yilda ustozini vafotidan keyin uning o‘rnini egalladi.¹⁵⁹

Makkaga ikki marta hajga borgan Dukchi Eshon Andijandan taxminan 35 km janubi-sharqda joylashgan Mingtepa qishlog‘ida katta xonaqoh barpo etdi. Bu yerda har kuni 200–500 murid va ziyoratchi to‘planar, yuzlab kishilar ovqatlantirilardi. Taxminan 1895–1896 yillardan boshlab Dukchi Eshon ruslar boshqaruvida axloqiy inqiroz chuqurlashayotganini his qilib, tinch islohotdan qurolli jehod yo‘liga o‘tdi. U qabila aqsaqollari va nufuzli shaxslarga shaxsiy maktublar yo‘llab, qurolli kurashga chaqirdi. O‘zini payg‘ambarning xalifasi deb e‘lon qilgan u, hujum kunini Muharram oyining 9-kuniga belgiladi. Hujum arafasida taxminan 500 nafar murid tomonidan Xon deb e‘lon qilindi.

1898 yil 29 may kuni tong yorishida Dukchi Eshon boshchiligida taxminan 2 000 qurollangan kishi Andijon shahridagi 20-Rossiya batalyoni turadigan harbiylarga hujum qildi. Bundan bir vaqtning o‘zida Marg‘ilon va O‘shda ham hujumlar uyushtirildi. Rus askarlari tezda yo‘nalishlarini to‘g‘rilashdi va qo‘zg‘olonchilarni tarqatib yubordi. Qo‘zg‘olon taxminan 15 daqiqa davom etdi. 22 rus askari halok bo‘ldi, 16 nafari yaralandi.

Mingtepa — Dukchi Eshon yashagan va ko‘p muridlari to‘plangan qishloq — vayron qilindi va o‘rniga rus ko‘chmanchilar yashaydigan qishloq qurildi. Dukchi Eshon qo‘lga olindi va 18 nafar tarafdori bilan birga osib o‘ldirildi. 546 nafar isyonchi sud qilindi, 356 nafari majburiy mehnat yoki Sibirga surgun hukm qilindi.

Andijon qo‘zg‘oloni turli davrlarda har xil talqin qilindi. Sovet tarixshunosligida dastlab diniy jihatlar e‘tibordan chetda qoldirildi va qo‘zg‘olon “xalq inqilobiy harakati” deb baholandi.¹⁶⁰

¹⁵⁹ Fozilbek Otabek o‘g‘li. Dukchi Eshon voqeasi. Qo‘qon, 1924; Toshkent/Samarqand, 1927. C-120

Середнев А.Г. Сборник материалов для истории завоевания Туркестанского края. — Ташкент, 1908–1914. — С. 50–54.

1950-yillarga kelib u “reaksion harakat” deb talqin etildi. Mustaqil O‘zbekiston tarixshunosligida esa Andijon qo‘zg‘oloni Turkiston xalqining mustaqilligi, diniy -siyosiy va milliy erkinligi uchun kurash sifatida rasman qayta baholandi.

Yapon olimi Xisao Komatsu va ingliz tadqiqotchisi Alexander Morrison ushbu voqeani atroflicha o‘rgangan. Akademik muhitda qo‘zg‘olonning asosiy motivlari — diniy yoki ijtimoiy-iqtisodiy ekanligiga doir bahslar hamon davom etmoqda. Aniq bo‘lgan narsa shuki, bu harakat Turkistondagi Rossiya mustamlakachi boshqaruviga qarshi o‘n yillar mobaynida yig‘ilib qolgan noroziliklarning yorqin ifodasidir.

Barcha qo‘zg‘olonlarning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy zamin bor edi. Rossiya mustamlaka siyosati dehqonlarning yerlarini musodara qilib, ularni qashshoqlashtirdi. An‘anaviy sug‘orma dehqonchilikka tayanuvchi mahalliy fermerlar o‘z yerlarini rus ko‘chmanchilariga bo‘shatib berishga majbur bo‘ldilar. Soliq og‘irligi mahalliy aholini qattiq ezdi.

Bundan tashqari, paxta monokulturasining joriy etilishi an‘anaviy don etishtirish va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni siqib chiqardi. Bu holat oziq-ovqat xavfsizligini pasaytirdi va bozor o‘zgarishlariga qaramlikni oshirdi. Mustamlaka iqtisodining asosiy maqsadi Rossiya sanoati uchun xom ashyo yetkazib berish bo‘lib, bu mahalliy aholining moddiy ahvolini yanada yomonlashtirdi.

Rossiya mustamlaka boshqaruvi an‘anaviy islomiy institutlarga ham bosim o‘tkazdi. Dukchi Eshon so‘roqda nima uchun qo‘zg‘olon ko‘targanini tushuntirganida shunday dedi: ruslar kelgach, xalqning axloqiy holatida kuchli yomonlashuv yuz berdi, Makkaga haj safariga cheklovlar qo‘yildi. Bu so‘zlar mustamlaka tizimiga bo‘lgan diniy va ma‘naviy norozilikni aniq ifodalaydi.

Rossiya ma‘muriyati mahalliy urf-odatlar, diniy marosimlar va qozixona tizimiga aralashishi an‘anaviy hayot tarziga tahdid sifatida qabul qilindi. Haj safarlariga qo‘yilgan cheklovlar, rus ko‘chmanchilari tomonidan yangi yerlarning o‘zlashtirilishi va an‘anaviy mulkchilik tizimining buzilishi xalqda chuqur g‘azab va norozilik uyg‘otdi. Xonliklarning tugatilishi mahalliy siyosiy elitani hokimiyatdan mahrum etdi. Sobiq xon mansabdorlari, qozilar va boshqa nufuzli kishilar mustamlaka tizimida o‘z o‘rinlarini yo‘qotdilar. Ular ijtimoiy va moddiy jihatdan qiyin ahvolga tushib, noroziliklarini rivojlanayotgan qo‘zg‘olon harakatlariga yo‘naltirishdi. Qo‘qon xonligining 1876-yilda tugatilgandan so‘ng bu jarayon ayniqsa keskin tus oldi.

XULOSA:

XIX asrda Turkistonda yuz bergan xalq qo‘zg‘olonlari o‘z davri uchun hal qiluvchi tarixiy hodisalardir. Kenesari Qosimov harakati qozoq xalqining o‘z mustaqilligi uchun qilgan so‘nggi ulkan harbiy-siyosiy urinishini ifodalaydi. Qo‘qon xonligidagi qo‘zg‘olonlar va Abdulmalik To‘ra harakati bu xalqning mustamlaka tizimiga bo‘ysunishdan bosh tortishining

yaqqol dalilidir. 1898 yilgi Andijon qo‘zg‘oloni esa Turkistondagi Rossiya mustamlaka boshqaruviga qarshi ikki o‘n yillik davomida yig‘ilib qolgan noroziliklarning eng yorqin ifodasi bo‘ldi.

Bu qo‘zg‘olonlar turli sabablarga ko‘ra mag‘lub bo‘ldi: mahalliy harbiy kuchlarning zamonaviy qurol-yarog‘ va tashkilotchilik jihatidan Rossiya armiyasidan orqada qolishi; qabilalar va guruhlar o‘rtasidagi ichki bo‘linishlar; yagona rahbarlik va strategik muvofiqlashtirishning yo‘qligi; qo‘zg‘olonlar o‘rtasida vaqt va makon jihatidan aloqaning zaif ekanligi. Biroq ularning tarixiy ahamiyati beqiyos bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy Markaziy Osiyo tarixshunosligida bu qo‘zg‘olonlar qayta baholanmoqda. Mustaqillikka erishgandan so‘ng O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston ushbu harakatlarni milliy ozodlik kurashining boshlang‘ich bosqichlari sifatida tan oldi. Kenesari Qosimov Qozog‘iston milliy qahramoni, Dukchi Eshon O‘zbekistonda milliy mustaqillik uchun kurashchi sifatida e‘tirof etilmoqda. Tarix saboqlari shuni ko‘rsatadiki, biron-bir mustamlaka tizimi xalqning milliy o‘zligini va ozodlikka intilishini butunlay bostira olmaydi. XIX asrdagi Turkiston qo‘zg‘olonlari – bu haqiqatning yorqin tarixiy isbotidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. В 3-х тт. - Санкт-Петербург, 1906. - С. 530.
2. Бекмаханов Е.Б. Казахстан в 20-40 годы XIX века. - Алма-Ата: Kazakh University Press, 1947.-С-430
3. Бабаджанов Б.М. Андижанское восстание 1898 года: дервишеский газават или антиколониальное выступление О‘zbekiston tarixi. 2001.С.250–300
4. Fozilbek Otabek o‘g‘li. Dukchi Eshon voqeasi. Qo‘qon, 1924; Toshkent-Samarqand, 1927. b-80-120
5. O‘zbekistonning yangi tarixi. I jild. Toshkent: Sharq, 2000. b-500
6. Kasymbaev, Zh. Kenesary Khan. Almaty, 1993. b-125
7. Ahmad Donish. Tarixiy Risola. Dushanbe, 1967. b-95